Annotatsiya: Ushbu maqolada magistrning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida ro'yobga chiqarish ilmiy asoslanadi. Xususan, magistrning kasbiy faoliyati mohiyati ijodiy muhit sharoitida kasbiy funksiyalarni amalga oshirish, ta'lim tarmog'ining dolzarb muammolari va amaliy vazifalarini hal qilish qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Tanlangan mutaxassislikni o'zlashtirish jarayonida o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish asosida magistrning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari ochib berilgan. Ijodkorlik shaxsning ijodiy mohiyatini belgilaydigan va uning tarkibida doimiy o'zgarishlarni ta'minlaydigan samarali o'z-o'zini shakllantirish sharti sifatida qaraladi. Magistrning tayyorlashda zamonaviy o'quv jarayoni va amaliyotini tahlil qilish natijalariga ko'ra, qarama-qarshiliklar hamda uning rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Magistrning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'llari belgilab berildi. Magistrning kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirishning samarali mexanizmi ularning kasbiy tayyorgarligini ijodiy salohiyatni maqbul rivojlantirishga yo'naltirish va tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash (kelajakdagi kasbiy faoliyatda ijodiy o'zini namoyon qilish uchun rag'batlantiruvchi motivlarni faollashtirish, fanlarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, kasbiy faoliyatga tayyorlikning tarkibiy qismlarini shakllantirishda psixologik-pedagogik yordamni tashkil etish) orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: magistr, ijodiy salohiyat, kasbiy faoliyat, zamonaviy ta'lim, o'z-o'zini shakllantirish.

Abstract: The article scientifically substantiates the realization of master's students' creative potential as a factor of their professional self-development. In particular, the essence of master's students' professional activity is considered as the ability to perform professional functions in a creative environment and to solve urgent problems and practical tasks within the educational system. The possibilities for realizing master's students' creative potential are revealed through the reconsideration and transformation of their own experience in the process of mastering the chosen specialty. Creativity is viewed as a condition for effective personal self-development, determining the creative essence of the individual and ensuring continuous change. Based on the analysis of the modern educational process and the practice of master's training, existing contradictions and development trends have been identified. The ways to improve professional training aimed at developing master's students' creative potential have been determined. It is substantiated that an effective mechanism of professional self-development lies in orienting professional training toward the optimal development of creative potential and in ensuring appropriate organizational and pedagogical conditions (activation of motives that stimulate creative self-expression in future professional activity; use of the didactic potential of academic disciplines; organization of psychological and pedagogical support in forming the structural components of readiness for professional activity).

Key words: master's student, creative potential, professional activity, modern education, self-development.



Аннотация: В статье научно обосновывается реализация творческого потенциала магистрантов как фактора их профессионального саморазвития. В частности, сущность профессиональной деятельности магистрантов рассматривается как способность осуществлять профессиональные функции в условиях творческой среды, а также решать актуальные проблемы и практические задачи системы образования. Раскрываются возможности реализации творческого потенциала магистрантов на основе переосмысления и преобразования собственного опыта в процессе освоения выбранной специальности. Творчество рассматривается как условие эффективного личностного саморазвития, определяющее творческую сущность личности и обеспечивающее её постоянные изменения. По результатам анализа современного учебного процесса и практики подготовки магистрантов выявлены существующие противоречия и тенденции их развития. Определены пути повышения профессиональной подготовки, направленной на развитие творческого потенциала магистрантов. Обосновано, что эффективный механизм профессионального саморазвития магистрантов заключается в ориентации их профессиональной подготовки на оптимальное развитие творческого потенциала и обеспечении соответствующих организационно-педагогических условий (активизация мотивов, стимулирующих творческое самовыражение в будущей профессиональной деятельности; использование дидактических возможностей учебных дисциплин; организация психолого-педагогической поддержки при формировании структурных компонентов готовности к профессиональной деятельности).

Ключевые слова: магистрант, творческий потенциал, профессиональная деятельность, современное образование, саморазвитие.

KIRISH

Dunyo bo'ylab ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasida jadal rivojlanish kuzatilayotgan bugungi zamonaviy sharoitda insonni raqobatbardosh ijodkor shaxs sifatida shakllantirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur'atlarda o'sib borishi, bozor munosabatlariga o'tish va inson faoliyatining barcha jabhalarida, ayniqsa ta'lim sohasida, tez o'zgarishlarga moslasha oladigan, tezkor reaksiyaga ega va samarali faoliyat yurita oladigan, nostandart va ijodiy yechimlar topa oladigan ijodkor mutaxassislarni shakllantirish hamda rivojlantirishni talab qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari jamiyatning intellektual, ma'naviy va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning asosiy omili bo'lgan ta'limga qo'yiladigan talablarni oshirmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilimlar, malakalar va amaliy ko'nikmalar berish, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, insonni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, jamiyatning oliy qadriyati bo'lgan insonning iste'dodi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qila oladigan hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan fuqarolarni voyaga yetkazish ekanligi ta'kidlangan ^[1]. Shuning uchun ta'lim shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, o'z-o'zini shakllantirish, o'z-o'zini anglash va tasdiqlash ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini yaratishi lozim. Ushbu muhim vazifa yuqori malakali, kasbiy mahoratli mutaxassislarni, ayniqsa o'z ijodiy qobiliyatlarini oliy ta'limda ham, keyinchalik ko'p tarmoqli kasbiy faoliyatda ham (chunki barcha soha mutaxassisliklari bitiruvchilari ta'lim sohasida ham, ishlab chiqarish sohasida ham o'z mavqeiga ega bo'lishi lozim) amalga oshirishga qodir magistr mutaxassislarni tayyorlash sharoitida, o'zgaruvchan mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalari tomonidan doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ijodkorning o'z-o'zini shakllantirishi deganda o'ziga xos bo'lgan, o'zini qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvurlariga muvofiq ravishda o'zini o'zgartirishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi tushuniladi ^[13].

Magistrlarning ijodiy kasbiy faoliyati jarayonida o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari "ijodiy salohiyat" tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. "Ijodiy salohiyat" tushunchasi ham xorijiy, ham mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, ushbu tushuncha turli yondashuvlarda talqin etiladi, xususan:

- iste'dodlar, moyilliklar, qiziqishlar, umumiy intellekt, sezgi, qobiliyatlar va boshqalarni o'z ichiga olgan tarkibiy shakllanish sifatida ^{[16], [3], [25], [23], [14], [19]};
- ijodkorlikka xos shaxsiy sifatlarining to'rtta guruhi, ya'ni dunyoqarash, qadriyat, intellektual va irodaviy sifatlar sifatida ^{[8], [25]};
- shaxsiy mohiyatning namoyon bo'lishi, ya'ni shaxsning ichki xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va xarakterining tashqi harakatlar, qarorlar hamda faoliyat orqali ifodalanishi sifatida ^[11];
- shaxsning ijodiy va intellektual faoliyatini amalga oshirish vositasi sifatida ^[3];
- inson tomonidan o'z individualligini namoyon etish jarayoni sifatida ^[26];
- shaxsiy imkoniyatlarni tavsiflovchi sintetik (integratsiyalashgan) sifat sifatida ^[20];



- potensial ijodkorlik (shaxsning kelajakda ijodiy natijalar ko'rsatish imkoniyati) sifatida ^[22];
- kognitiv ijodkorlik (yangicha va samarali fikrlash qobiliyati) sifatida ^[7];
- tipik xususiyat sifatida, uning namoyon bo'lishi shaxsning ijodiy o'ziga xosligiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi ^[5].

Ushbu tushunchaning keng o'rganilganiga qaramay, "ijodiy salohiyat" tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emas hamda uni magistrnlarning kasbiy faoliyatida o'zini o'zi shakllantirish omili sifatida amalga oshirish muammosi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijodiy salohiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: ijodiy salohiyat – insonning yangi g'oyalar yaratish, faoliyatning turli sohalarida nostandart g'oyalar, yechimlar va yondashuvlarni ishlab chiqish, o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qobiliyatidir. Mazkur salohiyat insonning tasavvur qila olish, tanqidiy fikrlash, masalalarga noodatiy yondashish va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. U ijodkorlik, fikrlash moslashuvchanligi, tasavvur, ijodiy motivatsiya va eksperimentlarga tayyorlik kabi individual fazilatlar yig'indisidan iborat bo'lib, insonga turli sohalarida o'z qobiliyatlarini samarali namoyon etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ma'noda "ijodkorlik" ta'lim jarayonida paydo bo'ladigan muayyan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda olingan natijalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi. Ijodkorlikni "inson faoliyati turlaridan biri sifatida qarama-qarshiliklarni yechishga (ijodiy vazifani hal etishga) qaratilgan, buning uchun obyektiv (ijtimoiy, moddiy) va subyektiv shart-sharoitlar (bilim, ko'nikma, ijodiy qobiliyatlar) zarur bo'lib, natijada yangi va o'ziga xos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, shuningdek, ilg'or natija yaratiladi" ^[2] deb talqin qilgan V. Andreev tajribasidan bahramand bo'lamiz. Tadqiqotchi pedagogik ijod muammosini "inson faoliyatining ikki dialektik shartlangan turining pedagogik tizimi to'g'risidagi fan" deb hisoblaydi: pedagogik ta'lim va turli xil ijodiy faoliyat turlarida shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi hamda alohida shaxs va ma'lum bir guruhning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish uchun muloqot qilish jarayoni. Pedagogik ma'noda "ijodkorlik" ta'lim jarayonida paydo bo'ladigan muayyan qarama-qarshiliklar va muammolarni bartaraf etishda olingan natijalarning shaxsiy hamda ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi.

Biz V. Andreevning ijodkorlikni "qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan inson faoliyatining turlaridan biri (ijodiy vazifalarni hal qilish) sifatida talqin etuvchi" yondashuvini o'rinli deb bilamiz, bunda obyektiv (ijtimoiy, moddiy) va subyektiv shartlar (bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy qobiliyatlar) zarur bo'lib, natija yangi va o'ziga xos, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muhim hamda faol xarakterga ega bo'ladi ^[2].

Tadqiqotimizda pedagogik ijod muammosi "inson faoliyatining dialektik shartlangan ikki turi: pedagogik ta'lim va insonning o'z-o'zini ijodiy faoliyat hamda muloqotning turli shakllarida ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning pedagogik tizimi haqidagi soha" sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, ijodkorlik magistrnlarning, ya'ni bo'lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi hamda ta'lim (kasbiy, texnik) va ishlab chiqarish sohalarining ixtisoslashtirilgan muammolari va amaliy vazifalarini samarali hal etishga yordam beradi. Bunda ijodkorlik insonning o'zini samarali shakllantirishining omili va zarur sharti bo'lib, uning ijodiy salohiyatini belgilaydi. Ijodkorlikning o'z-o'zini shakllantirishdagi o'rni shundaki, shaxs ijodkorlik jarayonini faollashtiradi ^[4].

O'z-o'zini shakllantirish jarayonining muhim belgisi uning faol xarakteri, faoliyat va shaxsiy xatti-harakatlarning turli ko'rinishlariga tabiiy kirib borishidir. Bu jarayon ichki faol tamoyil bo'lib, harakatchan, o'z-o'zini tartibga soluvchi va ochiq tizim sifatida shaxsiy tuzilmani doimiy ravishda o'zgartirish imkoniyatini ta'minlaydigan asosiy qobiliyatdir ^[4].

N. Negovskaning fikriga ko'ra, magistrnlarning, ya'ni muhandis-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi bevosita ularning oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarligi mazmuni va tashkil etilishiga bog'liq ^[17]. Kelgusida magistrnlarning, ya'ni muhandis-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini tashqi va ichki omillar tizimi sifatida tushunish lozim: birinchidan, magistrnlarning muhandislik va pedagogik faoliyatining ayrim turlariga mos keladigan asosiy kasbiy vazifalarni amalga oshirishga tayyorlikni shakllantirishning tashkiliy jarayoni; ikkinchidan, oliy ta'lim magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ro'yobga chiqarishga asoslangan umumiy va maxsus kompetensiyalarni o'zlashtirish jarayoni. O'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyati inson haqiqiy subyektga aylanganda amalga oshiriladi. Shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishining harakatlantiruvchi kuchlari uning o'zida namoyon bo'ladi va tashqi omillar o'zining dasturiy rolini yo'qotadi ^[24]. O'z-o'zini shakllantirishning eng samarali usuli bu o'z tajribasini mushohadali tarzda qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish, o'z sa'y-harakatlari hamda faoliyati orqali shaxs salohiyati va rivojlanishini ochishdir ^[21].



Magistrlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari salohiyat atamasining mazmuni bilan uzviy bog'liq. "Salohiyat" atamasi lotin tilidan "kuch" deb tarjima qilinadi va keng ma'noda muayyan maqsadga erishish uchun mavjud yoki yo'naltirilishi mumkin bo'lgan manbalar, vositalar hamda zaxira kuchlar sifatida talqin etiladi ^[18].

Ijodiy salohiyat esa insonning barcha qobiliyatlarining o'zaro bog'liqligini hamda real amaliyot va yuqori faollik munosabatlarida shaxsning muhim ijodiy kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, ularni tizimli ravishda birlashtiruvchi hodisani aks ettiruvchi shaxsning tizim yaratuvchi sifatidir ^[26].

P. Kravchukning tadqiqot ishlarida "oliy ma'lumotli mutaxassis tayyorlash tizimidagi asosiy bosqich uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir, chunki ta'lim oluvchilarning izlanish, tahlil qilish, o'zgartirishlar kirita olish qobiliyatlarini rivojlantirishgina kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, shuningdek, yangi sharoitlarga ijtimoiy moslashish, vaziyat o'zgarishlariga tezkor munosabat bildirish hamda tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi" ^[12] degan o'rinni fikrlar keltirilgan. Demak, ijodiy shaxs bu ijodiy faoliyat orqali o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qodir shaxsdir. Shu bilan birga, salohiyatning o'zi ijodiy shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri, ijodiy faoliyat manbai bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida shaxs ijodiy shaxsiga aylaladi ^[11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot magistrnlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilgan. Tadqiqot vazifalari:

1. Magistrnlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirish mohiyatini ijodkorlik hodisasi sharoitida ko'rib chiqish.
2. Magistrnlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini ochib berish.
3. Magistrnlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'llarini belgilash.

Tadqiqot usullari:

1. Magistrlar ijodiy kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hamda uni amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni ochib berish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, falsafiy hamda pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish.
2. Ijodiy kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlarini, ijodiy salohiyatni va o'zini o'zi shakllantirish jarayonini tushunish uchun umumiy tushunchalarning mazmunini aniqlashtirishda ilmiy tahlil, eng muhim jihatlarni ajratib olish hamda umumlashtirishdan foydalanish.
3. Magistrnlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida ro'yobga chiqarish muammosi bo'yicha olimlarning fikrlarini sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, ma'lum qonuniyatlar va nomuvofiqliklarni aniqlash, xulosalar chiqarish hamda o'rganilayotgan hodisalarni yanada aniqlashtirish yo'nalishlarini belgilash.

Tadqiqot mazmuni

Magistrlar kasbiy faoliyatini amalga oshirish mohiyatini ko'rib chiqamiz. Bugungi sharoitda raqobatbardosh mutaxassisga qo'yiladigan talablar yanada yuqori, kasbiy vazifalar esa murakkablashmoqda. Inson bu qiyinchiliklarni o'z zimmasiga oladi, o'z oldiga ongli ravishda maqsadlar qo'yadi, muammolarni mos ravishda hal qilishga intiladi, o'z ustida ishlaydi (o'z rivojlanishi va o'sishi uchun), maqsadlarga erishadi, yanada murakkab vazifalarni tanlaydi, o'z qobiliyatlarini, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, yuqori standartlarga moslashishga harakat qiladi, faoliyatni optimallashtirishning mumkin bo'lgan usullarini izlaydi va hokazo. O'z maqsadi yo'lida harakat qiladi va bu unga o'sib borayotgan talablarga mos keladigan fazilatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni o'z xatti-harakatlarida namoyon etish hamda rivojlantirishga imkon beradi. Shunday qilib, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z salohiyatini ochish, "men" tushunchasini yaratish – bu shaxsning kasbiy shakllanishi omili sifatida o'zini o'zi shakllantirish ko'rsatkichlaridir ^[21].

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy magistr – bu ikki tomonlama integratsiyalashgan kompetensiyaga ega mutaxassisdir. Magistratura mutaxassislarning malaka talablariga ko'ra, ular ilmiy tadqiqot, pedagogik, loyihaviy-konstruktorlik, tahlil va nazorat, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritishlari mumkin ^[27; 28], ya'ni pedagogik va muhandislik faoliyatida kasbiy vazifalarni amalga oshiradi. Magistrnlarni muhandis-



pedagogik faoliyatning ko'p vazifali va keng tarmoqli turi kasbiy-pedagogik hamda muhandislik-texnik vazifalarni hal qilishda ijodkor bo'lishni talab qiladi. L. Gurye va L. Redinlar ta'kidlaganidek, ijodiy faoliyat qobiliyati, ijodkorlik va qarorlar qabul qilishda mustaqillik, ilmiy-amaliy ko'nikmalarni egallash pedagogik va muhandislik kasbiga uzviy xos bo'lgan asosiy xususiyatlar bo'lib, mehnat faoliyatida o'z salohiyatining yuqori raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim shartidir ^[9].

Magistrlarning kasbiy faoliyatidagi ijodkorlik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ishlab chiqarish sohasida ijodkorlikning alohida turi ko'pincha tizimlashtirilmagan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muhandislikda namoyon bo'ladi, xususan: eski texnika va texnologiyalarni takomillashtirish yoki ishlab chiqarish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi texnik yoki texnologik vositalarni yaratish; mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi, yanada takomillashgan shakllarini joriy etish. Magistr ijodiga ehtiyoj ishlab chiqarish jarayonida an'anaviy ravishda ma'lum bo'lgan yechimlar, usullar va vositalar ehtiyojlarni qondirmaganida hamda yangi yechimlarni taklif qilish yoki ixtiro qilish zarurati tug'ilganda paydo bo'ladi ^[6].

Tadqiqotimiz doirasida magistrnlarning ijodiy faoliyatiga qiziqish uyg'otish va ularning kasbiy faoliyatini yangi g'oyalarni izlashga, ijodiy o'zgartirishlar kiritishga, ishlab chiqarishda nostandart vazifalarni hal etishga yo'naltirish zarurligi asoslab beriladi.

Magistrlar, ya'ni muhandislar va texnologlarning kasbiy faoliyati uzluksiz ijodiy izlanishni, ijodiy maqsadlarni belgilashni, ta'lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarini innovatsion rivojlantirish rejalari va loyihalarini shakllantirishni, muayyan ilmiy-texnik g'oya yoki loyiha ustida tizimli ishlashni, standartlashtirilgan elementlardan ijodiy foydalanishni, ilmiy-texnik faoliyat me'yorlariga rioya etgan holda g'oyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni talab qiladi. Ya'ni muhandislik faoliyati muayyan ishlab chiqarish tarmog'ining texnik-texnologik muammolari va vazifalarini hal etishga qaratilgan omillar majmuasidir. Barcha mutaxassislik magistrnlarni kasbiy tayyorlashning ilmiy-pedagogik maqsadi va kutilayotgan natijalariga qarab, tadqiqotchilar uni takomillashtirish yo'llarini taklif qilganlar, jumladan:

- pedagogik komponentni boshqa tayyorgarlik yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish hamda pedagogik tajriba yutuqlarini izchil o'zlashtirish;
- ta'lim jarayoni mazmuni va ketma-ketligi jihatlarining birligi hamda o'zaro bog'liqligi tamoyiliga asoslangan muhandislik-pedagogik tarkibiy qismlarni integratsiyalash;
- umumta'lim va kasbiy yo'naltirilgan fanlarni axborot texnologiyalariga asoslangan holda o'rganishda integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish;
- nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda ijodiy yondashuvni qo'llash;
- kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek muhim qobiliyat va sifatlarni shakllantirish (masalan, bilim va ko'nikmalarni loyihalash, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, doimiy ravishda yangi manbalarni o'rganish, zarur ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish qobiliyati);
- dunyoqarashni shakllantiruvchi ma'lumotlarni o'zlashtirish, ongli ijodiy hayot, faollik, mustaqillik, mas'uliyat, ijodkorlik, harakatchanlik; muammolarni ko'ra olish va hal etish qobiliyati, o'z-o'zini anglash, o'z yo'nalishini belgilash hamda o'z-o'zini rivojlantirish va boshqalar);
- o'rgatuvchi va o'rganuvchi o'rtasida ularning intellektual, kommunikativ, tartibga soluvchi-xulq-atvor resurslari hamda umuman shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan o'zaro munosabatlarni tashkil etish;
- kasbiy yo'naltirilgan vazifalarni hal etishda kasbga tayyorlovchi harakatlarga asoslangan ijodiy kasbiy faoliyat tajribasini shakllantirish va boshqalar.

Magistrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim amaliyoti va uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijalarini hisobga olgan holda, quyidagilar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud deb hisoblash mumkin:

- magistrnlarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan o'sib borayotgan talablar va ularning tayyorgarlik holati;
- magistrnlarning ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish zarurati hamda ushbu jarayonning yaxlit modeli mavjud emasligi;
- magistrnlarning kasbiy o'sishga bo'lgan ehtiyoji va ta'lim subyektlarining ijodiy shaxsini rivojlantirishga yetarlicha yo'naltirilmaganligi;
- magistrnlarni kasbiy tayyorlashning salohiyatli imkoniyatlari va ularning amaliyotda yetarli darajada amalga oshirilmaganligi.



Shunday qilib, tadqiqotimizda keyingi izlanishlar istiqbolini kadrlar salohiyatini tarmoq va ta'lim sohasidagi o'zgaruvchan mehnat sharoitlarida tezkor yo'naltirishga tayyorlikni jadallashtirish, ayniqsa magistrnlarni ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlash orqali ta'minlash g'oyasiga asoslanib shakllantirilgan farazni tekshirish bilan bog'laymiz, ya'ni ta'limni magistrnlarning ijodiy salohiyatini qulay ro'yobga chiqarishga yo'naltirish hamda mos tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish (bo'lajak kasbiy faoliyatda ijodiy o'zini namoyon qilishga undovchi motivlarni faollashtirish; ijodiy turdagi kutilayotgan natijalarga erishishda kasbiy-amaliy tayyorgarlik sikli fanlarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish; ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlik komponentlarini shakllantirish bo'yicha psixologik-pedagogik ta'minotni tashkil etish) zarur.

XULOSA

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Magistrlar ham pedagogik, ham muhandislik faoliyatida kasbiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan, o'zaro bog'liq bo'lgan ikki tomonlama kompetensiyaga ega mutaxassislardir. Ularning ijodiy kasbiy faoliyati o'zgaruvchan mehnat sharoitlarida ta'lim (kasbiy-texnik) hamda boshqa tarmoqlarning maxsus muammolari va amaliy vazifalarini samarali hal etishga yordam beradi. Ijodkorlik shaxsning samarali o'z-o'zini shakllantirish omili va zaruriy sharti bo'lib, uning ijodiy mohiyatini belgilaydi hamda tuzilishini doimiy ravishda o'zgartirish imkonini beradi. O'z tajribasini refleksiv tarzda qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish, kasbiy faoliyatda o'z sa'y-harakatlari orqali salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda shaxsiy rivojlanish o'z-o'zini shakllantirishning eng samarali usullaridir.

Salohiyat ijodkor shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida ijodiy faoliyat manbai bo'lib namoyon bo'ladi; uning shakllanishi va rivojlanishi muhim o'rin tutadi, natijada inson ijodkorga aylanadi. Magistrnlarning kasbiy faoliyatida o'z-o'zini shakllantirishning samarali mexanizmi ularning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini optimal darajada amalga oshirishga yo'naltirilishi hamda tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020.
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Андреев, В. И. (1988). Диалектика образования и самообразование творческой личности: основы педагогики творчества. Казань. 238 с.
4. Боговлянская, Д. Б. (1983). Интеллектуальная деятельность как проблема творчества. Ростов н/Д. 173 с.
5. Борисевский, М. Д. (2012). Самосозидание личности и социально-психологическая сущность как детерминанты формирования и развития. В: С. Д. Максименко (ред.), Проблемы общей и педагогической психологии (Том XIV, Часть 1), с. 28-35. К.
6. Варламова, Е. П., Степанов, С. Ю. (2002). Психология творческой уникальности. М. 256 с.
7. Гаскова, Е. Е., Пирогова, Ю. Ю. Инженерное творчество. Доступно по адресу: http://conf.sfu-kras.ru/sites/mn2011/thesis/s11/s11_10.pdf.
8. Гускова, Е. А. (2007). Психологические условия реализации творческого потенциала студентов в образовательном процессе университета. М. 212 с.
9. Guilford, J. P. (1975). Creativity: A quarter century of progress. In: L. A. Taylor, J. W. Getzels (Eds.), Perspectives in Creativity (pp. 37-59). Chicago: Aldine.
10. Гуре, Л. И., Редин, Л. В. (2004). Развитие творческих качеств студентов технического университета в процессе методической подготовки. Интеграция образования, 3 (36), 126-129.
11. De Bono, E. (1993). Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas. HarperBusiness. 338 p.
12. Емчик, О. Г. (2015). Проблема творческого потенциала личности в научно-педагогическом наследии. Педагогические науки: теория, история, инновационные технологии, 5 (49), 116-125.
13. Кравчук, П. Ф. (1992). Формирование творческого потенциала личности в системе высшего образования. Автореферат докторской диссертации. М. 32 с.
14. Kurilo, O. (2020). Realization of the Creative Potential of Future Engineers-Teachers of the Food Branch as a Factor of Self-Creation in Professional Activity. In: Advances in Social Science, Education and Humanities Research, Vol. 516. Proceedings of the 3rd International Seminar on Education Research and Social Science (ISERSS-2020). Berdiansk, Ukraine.
15. Леонтьев, А. Н. (1977). Деятельность, сознание, личность. М. 304 с.
16. Львова, И. В. (2005). Психологические факторы развития личностной креативности. Кандидатская диссертация. Новосибирск. 203 с.
17. Моляко, В. О. (2006). Способности, креативность, талант: теория, методы, результаты исследований. Житомир: Рута. 320 с.
18. Неговска, К. И. (2011). Специфический аспект формирования специальности инженера-преподавателя в контексте подготовки преподавателей. Педагогические науки, 90, 130-133.

19. Николайенко, Л. И. (2016). Творческий потенциал личности как предмет зарубежных и отечественных исследований: теоретический анализ. Научный обзор, 1 (22), 1-6.
20. Попель, А. А. (2005). Психологические условия развития социальной креативности студентов в процессе профессиональной подготовки. Кандидатская диссертация. Н. Новгород. 217 с.
21. Посталюк, Н. Ю. (1989). Творческий стиль деятельности. Педагогический аспект. Казань. 204 с.
22. Пророк, Н. В. (2009). Самосовершенствование и самосозидание – основа профессионального развития личности. Проблемы современной психологии, выпуск 5, 367-379.
23. Роменец, В. А. (2001). Психология творчества. К.: Лыбидь. 288 с.
24. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. Доступно по адресу: http://yanko.lib.ru/books/psycho/rubin-shteyn=osnovu_obzhey_psc.pdf.
25. Серджук, Л. З., Яблонская, Т. М., Данилюк, И. В., Пенжкова, О. И., Володарская, Н. Д. (2015). Психологические и педагогические основы процесса самосозидания личности. Л. З. Серджук (ред.). К.: Педагогическая думка. 197 с.
26. Taylor, C. W. (1988). Various approaches and definitions of creativity. In: The Nature of Creativity (pp. 99-126). Cambridge: Cambridge University Press.
27. Яковлева, Е. Л. (1997). Психология развития творческого потенциала личности. М. 224 с.
28. 70711401 – Transport vositalari muhandisligi magistratura mutaxassisligi malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. T.: 2024-yil.
29. 70711402 – Avtomobillar va avtomobil xo'jaligi magistratura mutaxassisligi malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. T.: 2024-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.